



ZARAFSHON VOHASI TURKMAN URUG'LARI KIYIM-KECHAKLARINING ETNIK XUSUSIYATLARI

Umarov Anvar Shuxratovich

Sharof Rashidov Nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
komarovvanvar88@gmail.com



ANNOTATSIYA

Zarafshon vohasi turkman urug'larining an'anaviy kiyim-kechaklari va ulardagi etnik xususiyatlarini, urf od़at va an'analarini namoyon etadi. Vohada yashovchi boshqa etnik guruhlar singari Zarafshon havzasi aholisining ananaviy kiyimlari uzoq tarixiy jarayonlar davomida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda urf-odat, marosim, an'analar tasirida davrlar o'tishi davomida o'ziga xos xususiyatda shakllanib, rivojlanib kelganligi to'g'rsida mulohaza qilinadi.

Tayanch so'z: Turkman, O'g'uz, Qo'shtamg'ali, Zarafshon vohasi, etnik guruh, urug', musvog', kiyim, chakmon, to'n, mato, urf-odat, bo'z, kaltacha, nimcha, choriq.

АННОТАЦИЯ

В оазисе Зарафшан представлена традиционная одежда туркменских родов, их этнические особенности, обычаи и традиции. Как и у других этносов, проживающих в оазисе, традиционная одежда жителей Зарафшанского котловины формировалась и развивалась по-своему в ходе длительных исторических процессов, социально-экономического развития, обычаяев, обрядов и традиций.

Ключевые слова: Туркмен, огуз, Коштамгали, Заравшанский оазис, этнос, род, мусоваг, одежда, чакмон, тон, ткань, традиция, серое, короткое, нимча, чарих.



ANNOTATION

In the Zarafshan oasis, traditional clothing of Turkmen clans, their ethnic characteristics, customs and traditions are presented. Like other ethnic groups living in the oasis, the traditional clothing of the inhabitants of the Zarafshan basin was formed and developed in its own way during long historical processes, socio-economic development, customs, rites and traditions.

Keywords: Turkmen, Oguz, Koshtamgali, Zarafshan oasis, ethnicity, clan, musovag, clothing, chakmon, tone, fabric, tradition, gray, short, nimcha, charikh.

Kirish:

“Kiyinish har bir xalqning qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan mintaqasi, shart-sharoiti, turmush tarzi, udum, urf-odatlari, tabiat bilan ham chambarachas bog‘liq bo‘lgan”¹. Asrlar davomida xalq an'anaviy kiyim-kechaklari moddiy madaniyatning asosiy sifatlaridan biri, muayyan etnosning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy darajasini ko‘rsatib beradigan jarayondir. Shu bilan bir qatorda u har bir etnik jamoalarning boshqa jamoalar bilan etnomadaniy aloqalarini o‘zida aks ettiradi.

Kiyim inson tanasini tashqi muhit (iqlim, ob-havo o‘zgarishlari, quyosh nuri va boshqalar) ta’siri va turli tashqi ta’sirlardan asraydigan vositalar to‘plami; estetik vazifani bajaradi hamda jins, yosh, milliylik va boshqa xususiyatlarni o‘zida aks ettiradi. Keng ma’noda “Kiyim” tushunchasi bosh kiyimlar, oyoq kiyimlar (poyabzal), qo‘lqop va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Kiyim turiga ko‘ra ichki kiyim, ustki kiyim, bosh kiyimlar, oyoq kiyimlar (poyabzal); vazifasiga ko‘ra kundalik, uyda, dam olish paytida, bayram va to‘y marosimlarida kiyiladigan (kishilik) kiyimlar, ish kiyim (jomakor), sport kiyim, rasmiy kiyimlar, maxsus kiyimlarga bo‘linadi; ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlariga ajratiladi².

Xalqimizning milliy-an'anaviy kiyimlari ham tarixiy va iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda tikilgan. Binobarin, tarixiy voqeylek, yashash sharoiti tufayli insonlar o‘zlariga yashash uchun mos va eng qulay bo‘lgan liboslarni kiyishga odatlanganlar.

¹ Махмуд Саттор. Ўзбек удумлари. – Т.: “Фан”, 1993. 90-6.

² Otamurodov O.B. Kiyim turlari va ularning kelib chiqishi haqida. “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali. №13. B. 164-166.



Ustki kiyimlar ixcham qilib bichilgan, bel qismiga charm yoki maxsus ipdan to‘qilgan kamar bilan taqilgan. Odiy xalq junli to‘qimalardan tikilgan ust kiyimlar kiyib bellarini jundan ingichka qilib chibchilgan ip bilan bog‘lab yurgan. Ma’lumki, kiyim tayyorlashda avvalo ip, gazlama va mato ishlab chiqarish muhim hisoblanadi. Asrlar davomida mato ishlab chiqarishda paxta, ipak, jun va teri asosiy xom ashyo bazasi hisoblangan. Paxta va ipak tolasidan mato to‘qish asosan o‘troq yashagan aholilar orasida rivojlangan bo‘lsa, jun va teridan esa chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi etnik jamoalarda orasida rivoj topgan edi.

O‘tgan asrning birinchi choragidan boshlab teri va jun matolardan kiyim-kechak tayyorlashdan ko‘ra, ip-gazlama matolardan foydalanishga o‘tish ko‘zga tashlanadi. Umuman olganda, xalq kiyimlar va matolarni tayyorlashda ham badiiy uslub astasekin o‘zgarib borishini ko‘rishimiz mumkin. Ammo XX asrning 20-yillari oxiridayoq to‘qish texnikasida muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Mahalliy ustalar tomonidan ishlab chiqariladigan matolarga fabrika iplarining qo‘silishi, jumladan, mahalliy usulda tayyorlanadigan alachalarga boshqa davlat fabrikalarida tayyorlangan iplarni qo‘sib tayyorlash ularning yuqori sifatli matoga aylanishiga olib kelgan. Bu davrda voha aholisi kiyimlari avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qadimiylardan – bo‘z, xonatlas, olacha, qalami, banoras, beqasam, adres, bo‘z va boshqa matolardan tikilgan.

Muhokama va natijalar. Zarafshon vohasi Pasdarg‘om, Qo‘shteribod, Payariq tumanlarida istiqomat qiluvchi turkman urug‘lari ip yigirish uchun “urchuq, choriq”, gilam to‘qish uchun esa “o‘rmak, do‘kon” deb atalgan oddiy moslama dastgohdan foydalanganlar.

Uzoq tarixiy davr mobaynida kiyimlar turi ko‘payib, takomillashgan ularni bichish va tikish uslublari o‘zgargan. Kiyimlarning qanday bo‘lishi material turi va sifatiga bog‘liq bo‘lgan. Matolar O‘zbekistonning boshqa hududlari singari Zarafshon vohasida ham asosan uy sharoitida tayyorlangan. Zarafshon vohasida istiqomat qiladigan etnik guruqlar, paxtadan turli xildagi matolar to‘qigan. Zarafshon vohasi Pasdarg‘om, Payariq, Qo‘shteribod, Nurota kabi hududlarida go‘za yetishtirilgan. Chorvachilik bilan shug‘ullangan turkman, chandir, qo‘shtamg‘ali, oytamg‘ali, besh ota mang‘ishloq va shu boshqa voha urug‘ aholisi ko‘proq jundan mato to‘qiganlar, paxta va jundan mato to‘qishda vohaning tog‘li hududlari bo‘lgan Qo‘shteribod va

Nurota tumanlaridagi Toz, Anna, Qorakissa, Qo'shtamg'ali, Jo'sh, Bog'ojat kabi tog' qishloqlari chorva junidan foydalanish ancha taraqqiy etgan.

Vohada paxta yetishtirish va undan mato tayyorlash juda qadim tarixga borib taqalmaydi. Uy sharoitida paxtadan mato tayyorlash uchun paxta chigit maxsus asbob xalaji (chig'iriq) yordamida ajratib olingan. Shundan so'ng paxta savag'ichlar orqali savalangan va «kurchuq»da yigirilgan. Ipni bo'yashda ishlatiladigan bo'yaqlar ham asosan mahalliy sharoitda qo'lida tayyorlangan. Jumladan, o'simlik barglari, ildizlari va po'stlog'lari, yong'oq daraxti mevasi po'stlog'I qaynatilgan va turli ranglar olingan. Chunonchi, ro'yandan qizil, istara (atirgul, boggul)dan och-qizil, sariq, qora yoki to'q jigarrang yong'oq po'stidan, anor po'chog'idan sariq va boshqa ranglar tayyorlangan. Iplarga rang berib bo'lingach, ishqorli suvda yuvib olingan, shundan so'ng to'qimachilik dastgohi orqali to'qilgan. To'qimachilik dastgohi o'rmak, ayrim hududlarda do'kon deb atalgan.

Voha aholisi qadimdan paxta matolar bilan birga mayda tuyoqli jonivorlar (qo'y, echki) junidan chakmon, po'stin, xatto aholining tuyasi borlari tuya junidan ham chakmon tayyorlangan. Chorva mollaridan qirqib olingan junlar yuvilib tozalangan, jun taroqda taralgan, so'ngra savalanib, urchuqda yigirilib, ip holatiga keltirilgan. Junni yigirishda saboq, chillak va iptav singari qo'l asboblaridan foydalanilgan. Yigirilib kalava qilingan jun ip bo'yaqlar orqali bo'yab olingan, shundan so'ng esa o'rmak qurilib, to'qilgan. Voha aholisi qadimdan olacha, bo'z, qoqma, galdirsi, terma kabi matolardan kiyim tikishgan. Aholi orasida keng qo'llanilgan matolardan biri bo'zdir. Bo'z kiyishda aholi jinsi va yoshiga qaran kiyim tikishgan. Bo'zning sarg'ish, tabiiy oq, malla rangli turlari bo'lib, oq bo'zdan keksa yoshli erkaklar ko'ylak, ishton, qizil rangli bo'zdan ayollar kiyimi tikishgan. Olacha ham voha aholisi orasida keng tarqalgan mato bo'lib, bu matodan turli yoshli aholi uchun kundalik kiyimlar to'qilgan. Olacha asosan yo'l-yo'l ranglar berib to'qilgan. Voha aholisi beqasamdan chopon, kamzul, kurta va kurtachalar tayyorlashgan. Masalan, "olacha" qo'y va echki junidan to'qiladi. "Qoqma, Galdirsi, Terma" kabilari turlarga bo'linadi. "Terma" nomli gilamga maxsus shakldagi gullar tasviri tushirilib teriladi, "galdirisi" gilamning osti qismi tomondan teriladi, "qoqmasi" gilam, qishloq axli shevasida jipni (ipni) terib qoqib- qoqib ketaveriladi. Olachani qismlari kuzuvi, tarami boylab, ipni boylab ketaverasiz, buni to'qishda ishlatiladigan maxsus qismlari mavjud. Eshagi- uni "Bo'yildiriq", qilichi-bu urgich yoki savalagich, gilam tarag'i,



terma cho‘pi va tortmasi bo‘ladi unga kichgina qilich kirgiziladi va to‘qish ishlari shu tariqa davom etiriladi³.

XIX asr oxirida –XX asr boshlarida O‘rta Zarafshon vohasi aholisi kasanachilik va boshqa yordachi kasbkorlik bilan ham shug‘ullanishni davom ettirganlar. Shulardan eng ko‘p tarqalgani to‘qimachilik va tikuvchilik bo‘lgan. Aholi asosan bo‘z va jun gazlamalardan gilam, palos, chakmon, dasturxonlik, xalta, turva, xurjin va tukli gilamlar tikishganlar. O‘zlarini Xorazm turkmanlaridan kelib chiqqanligini hisoblashgan (Samarqand tumanining Turkman qishlog‘ida yashovchi xidir elilik)lar, Xorazmdan ko‘chirilgan o‘zbek-urganjilari va siganlar umuman tikuvchilik bilan shug‘ullanishmaganlar. Darg‘omning qo‘yi qismida yashovchi chandir turkmanlarining va Samarqandning Kulabod mahallasi turkmanlarining yordamchi kasb-koriga devor qurish (paxsa) ham kiradi. Masalan qishloq va qurg‘onlari atrofini o‘rab turuvchi baland devorlar qurishganlar. Devor quruvchi mutaxasislar devorzan yoki devorkash deb yuritilgan⁴.

Zarafshon vohasi Turkman urug‘larining XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kiyimlaridagi etnik va umumiylit jihatlar hamda an‘anaviy kiyimida yuz bergen transformatsiya jarayonlarni tahlil qilish uchun dastavval XIX – XX asr boshlarida voha aholisining kiyimlariga qisqa tarzda bo‘lsada tavsif berishni lozim. Voha aholisining kiyimlarini mavsumiy kiyimlar, o‘troq aholi kiyimlari, chorvador aholi kiyimlari, yosh bolalar kiyimlari, erkaklar kiyimlari, kambag‘al aholi kiyimlari, o‘ziga to‘q odamlarning kiyimlari, bayram va tantanalarda kiyiladigan kiyimlar va aza kiyimlariga turkumlash mumkin.⁵. Shuningdek, har bir kiyim turi o‘z o‘rnida yana bir necha turga ajratish mumkin. Xususan, ichki va ustki, bosh va oyoq kiyimlar shular jumlasidandir.

Samarqand viloyati Pasdarg‘om tumani Yuqori Chandir qishlog‘i Buyuk Turon maxallasi oqsoqoli 87 yoshli G‘affor Karimov bilan bo‘lgan suxbatda shu ma’lum bo‘ldiki, ilgari ayolarimiz uyda qo‘y junidan gilam, jun varaq, to‘qim, sholcha, xalta, xo‘rjun, qop, jun ro‘mol, nimcha, chakmon tikishgan. Qishloqda xozirda biror bir ayol kishi manashu eski kasblar bilan shug‘ilanmaydigan bo‘lib ketishdi deydi oqsoqol⁶.

³ Дала ёзувлари. Кўшробод тумани. Кўштамғали қишлоғи. 2023 йил.

⁴ Г.Н.Васильева, Б.Х.Кармышева. Этнографические очерки узбекского сельского населения. Издательства “Наука” Москва 1969 г. С. 63-65.

⁵ Исмоилов Х.И. Анъанавий ўзбек кийимлари. Тошкент. “Фан”. 1979. – Б.16.

⁶ Дала ёзувлари. Пастдарғом тумани. Юқоричандир қишлоғи. 2023 йил.



Qo'shrobod tumani Qo'shtamg'ali, Qorakissa, Toz, Qo'rg'on va boshqa qishloqlarda paxta ekilmagan, shu sababli paxat Kattaqo'rg'on tumani va Navoyi viloyatidan olib kelingan. Uni ip xoliga keltirib, "Alak" kiyim tikishgan va qolgan qismidan boshga telpak qilib berilgan.

Chorva junlarni sortlarga ajratilgan. Avvallari "kiygiz" tayyorlangan, xozir qilinmay ketdi, olacha, qashqar gilam (taqir gilam, qattiq, tuki yo'q), patli gilam (xoli) qazi gilamlar tikilgan. Echki junidan "Erish" to'qilgan. po'stak, po'stin, chakman, chikman qo'y va echki terisidan qilingan. Po'stak issiq bo'lganligi tufayli, qishda uyni to'rida turgan. Yuqorida aytilgan kiyimlar qishda ustga kiyib yurish uchun mo'ljallangan. Asosan qo'yni terisidan yoki tulkini terisidan "Tumoq" boshga kiyadigan orqasi tushiriladigan telpak qilingan. Boshga undan tashqari toqiya, salsa o'rashgan, tagidan kalla po'sh "kalavash" deb ataldigan bog'ich o'rashgan. Jegda yozgi kiyim ustga kiyidigan kiyim. "Chakman, chikman"ni ichiga jun qoplasa "Chiydon" bo'ladi. Jundan taylorlangan ip "Shordoz" deb atashadi⁷.

Zarafshon vohasi turkman urug'lari erkaklarining ust kiyimlaridan biri to'n hisoblanib, u mahalliy barcha etnoslar tomonidan ommaviy ravishda kiyilgan va eng ko'p tarqalgan kiyim sanaladi. To'n juda qadimiy kiyim hisoblanib⁸, mazkur ustki kiyim old tomoni ochiq qilib tikilgan. Asosiy ustki kiyim hisoblangan to'n aholining jinsi, yoshi va ijtimoiy mansubligiga qarab bir necha xilda bo'lgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Zarafshon vohasi Qo'shrobot tumani tog' oldi qishloqlarida istiqomat qiluvchi turkman urug'lari erkaklar to'nлари vohada yashovchi boshqa etnik guruhlар erkaklari to'nidan farq qilib, bu farqni to'nning bichilishida va keng qilib tikilishida ko'rishimiz mumkin⁹. Umuman olganda, XX asrning birinchi yarmiga qadar vohada erkaklar ustki kiyimini chopon, jelak, chakmon, kebanak, po'stin, jegda tashkil etgan. Vohada chopon, ya'ni to'n ustidan kiyiladigan yengil ust kiyimlardan biri jelakdir. Vohaning ayrim hududlarida yaktak deb atalgan.

Jelak- avra-astardan iborat yengil kiyim bo'lib, yoshi katta kishilar chopon ustidan kiyib yurganlar. U kishiga ko'rk baxsh etish bilan birga choponlarni tezda kir bo'lishdan saqlagan. Zarafshon vohasi turkman urug'lari tadqiq etilayotgan davrda yoz fasllarida chopon kiyimasdan, ko'ylak ustidan jelak kiygan. Aksariyat tog'ning

⁷ Дала ёзувлари. Кўшробод тумани. Кўштамғали, Тоз, Қоракисса, Анна қишлоқлари. 2023 йил.

⁸ Малов Е.Е. Памятники древнетюркской письменности. Москва. 1951. – С. 77.

⁹ Дала ёзувлари. Кўшробод тумани. Кўштамғали, Тоз, Қоракисса қишлоқлари. 2023 йил

yon bag‘rida yashovchi qishloq chorvador aholisi, yoz fasli bo‘lishiga qaramasdan tong otgan chog‘i salqin bo‘lganligi sababli, chorvani tog‘ga boqishga xaydar ketayotganda ustiga to‘n, chopon kiyib yurishadi¹⁰.

Zarafshon vohasi turkman urug‘lari ham vohada yashovchi boshqa chorvador etnik guruuhlar kabi qo‘y terisidan po‘stin tayyorlaganlar. Qish mavsumining ayozli kunlarida to‘n ustidan po‘stin yoki chakmon kiyishni xush ko‘rgan.

Zarafshon vohasi turkman urug‘larining qadimiyligi kiyimi bo‘lgan chakmon qo‘y yoki tuyu junidan xonaki usulda to‘qilgan matodan tikilgan astarsiz, faqat avradan iborat, choponga o‘xshagan kiyimdir. Chakmon keng va uzun tikilib, etaklari, yoqasi va yeng uchlariga chiroz jiyak tikilgan. U chopon ustidan kiyilib, belbog‘ bog‘lanmagan. Chakmonning tivitli, bosma va qoqma kabi turlari bo‘lgan. Chakmon O‘rta Osiyoning turli halqlarida aynan shu nom bilan – qirg‘izlarda “chekpen”, turkmanlarda – “chekmen”, tojiklarda – “chakmon”, boshqirdlarda – “sekmen” nomi bilan atalib kelingan¹¹. Kiyimlardagi bunday yaqinlik va o‘xshashlik O‘rta Osiyo xalqlarining madaniy aloqalari qadimdan rivoj topganligidan, bir etniklikka mansubligidan dalolat beradi.

Belbog‘ erkaklar ust kiyimi, ya’ni chopon, jelak ustidan belga bog‘lanadigan ro‘mol bo‘lib, bo‘z, shoyi kabi matolardan kashtali hamda kashtasiz tikilgan. Voha chorvador aholisining jundan to‘qilgan matolardan ham belbog‘lari bo‘lgan. XX asrning birinchi choragida chopon kiyganda albatta, belbog‘ bilan belini bog‘lab yurganlar. Shuningdek, to‘ylarda sarpo sifatida, erkak kishilar beliga belbog‘ bog‘langan. Xususan, to‘yda kuyovga to‘n kiydirib, belbog‘ bog‘lashgan. Yoshi katta keksa kishilar oq matodan tikilgan belbog‘lar bog‘lashgan. Yosh yigitlar esa katta rangdor kashtali, bezakli belbog‘lar bog‘lashgan. O‘ziga to‘q, boyroq odamlar ikki, uchta belbog‘ bog‘lab yurishgan. Bu esa ularning qay darajada hurmat-e’tiborga loyiqligi hamda boyligidan dalolat bergen. XX asrning 30-40-yillariga kelib yoshlar va o‘rta yoshdagи erkaklar belbog‘ bog‘lamay qo‘yanlar. Faqatgina jonazalarda, mayitning yaqinlari o‘rtasida belbog‘ bog‘lash xollari kuzatiladi. Bu esa vohada erkaklarning belbog‘ bog‘lash an’anasining asta-sekin kundalik turmush-tarzidan chiqa boshlaganligidan dalolat beradi.

¹⁰ Дала ёзувлари. Қўшробод тумани. Қўштамғали, Тоз, Қоракисса кишлоқлари. 2023 йил

¹¹ Захарова И. В., Ходжаева Р. Д. Казахская национальная одежда XIX – начало XX века. – Алма-Ата: Наука, 1964. С.176.



Zarafshon vohasining deyarli hamma qishloqlarida oyoq kiyim tikadigan ustalar bo‘lgan. Aholining an’anaviy oyoq kiyimlari mahalliy ustalar tomonidan tikilgan bo‘lib, takaki, choriq, hakkari, mo‘kki, toshtovon kabi oyoq kiyimlar tayyorlashgan. Etik va maxsi kovushlarni vohadagi hamma ustalar ham tayyorlay olmagan, bu xildagi oyoq kiyimlar uchun xom ashyo sifatida ot, tuya, qoramol, qo‘y va echkining oshlangan (iylangan) terilaridan foydalanilgan. Qo‘srobot tumani Qo‘shtamg‘ali, Qorakissa, Toz, Qo‘rg‘on va boshqa qishloq axli oyoq kiyimni “Choriq” deb atashgan.U eshak va echkini terisidan qo‘lda tikilgan¹².

Choriq-“qalin xom teridan tayyorlangan, kalta qo‘njli, tagi qalin, uchi yuqoriga biroz qayrilgan oyoq kiyim”¹³ hisoblanadi.

Teri jiyyda, zardoli (o‘rik) tomirlaridan tayyorlangan suvga 2-3 kun solib qo‘yiladi, keyin qizg‘ish rangga kirgandan so‘ng, teri iylanadi. Undan tashqari takaki asosan qoramol terisidan qilingan. Choriq kambag‘allar oyoq kiyimi ekanligi haqida yozma manbalarda ham to‘xtalib o‘tilgan. Maxsi ham, mo‘kkilar ham sarka terisidan tikilgan, asosan yog‘ingarchilik davrida kiyiladigan hakkari kovushlar yog‘ochdan yasalgan.

Har bir xalqning kiyimlarini o‘rganish mazkur xalq moddiy madaniyatining etnik mansubligini yorqin ifodalovchi elementlaridan biridir. Zarafshon vohasi Qo‘srobot, Nurota atrofi qishloqlaring ayollar kiyimlari o‘ziga xos etnolokal xususiyatlari bilan vohada yashovchi boshqa etnik guruhlar kiyimlaridan ajralib turgan. Lekin, shu bilan birga uzoq vaqt davomida transformatsion jarayonlar ta’sirida ayollar kiyimlari XIX asr oxiri – XX asr bosolaridagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar natijasida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Zarafshon vohasi ayollarining ko‘ylaklari yoshlariga qarab turli bichimda bo‘lgan, ko‘ylaklar uzun hamda keng qilib tikilgan. Turkiy xalqlarda ichki ko‘ylaklar ustidan hamisha kundalik ko‘ylaklar kiyib yurilgan. Vohada yosh qizlar ko‘ylagidan turmush qurban ayollar ko‘ylagi ma’lum tomonlari bilan ajralib turgan, bular avvalo ko‘ylak yoqalari bilan farq qilgan. Ayollar ko‘ylagi o‘yma hamda ko‘ndalang yoqali bo‘lgan. O‘yma yoqali ko‘ylak bo‘yindan bir qarich uzunlikda ko‘krakgacha kesilgan, ingichka jiyak tutilib, bog‘ich qilingan. Asosan bu ko‘ylak ayol kishining bola emizishiga mo‘ljallangan. Vohaning ayrim qishloqlarida bu ko‘ylakni

¹² Дала ёзувлари. Кўшробод тумани. Кўштамғали, Тоз, Қоракисса кишлоқлари. 2023 йил

¹³ <https://uz.wiktionary.org/wiki/choriq>





“peshchak”, “peshkumo” deb atashgan. Qizlar hamda qariyalar ko‘ndalang yoqali ko‘ylak kiyishgan, bu ko‘ylakni “kiftaki” deb atashgan.

Zarafshon vohasi tog‘ oldi qishloqlaridagi ayollar qish faslida hamda to‘y –bayram tadbirdarida ikki-uch, hatto undan ham ko‘p ko‘ylaklarni ustma-ust qilib kiyganlar. Albatta, ustingi ko‘ylak qimmatbaho matodan tikilgan. Zarafshon vohasi ayollarining ustki kiyimlaridan biri kurta yo‘l-yo‘l matodan tikilib, asosan astarsiz avradan iboratdir. Kurtaning yenglari, yoqasi hamda etaklariga chiroyli jiyaklar tikilgan, ayollar kurtani asosan boshiga tashlab yurgan. O‘zbekistonning boshqa hudud aholisida ham bo‘lib, qoraqalpoqlarda “oq jada” hamda Xorazm o‘zbeklarida “jada” deb ataladi. Voha ayollarining an‘anaviy ust kiyimlaridan munisak yoki peshvo bo‘lgan, munisak qadimgi kiyimlardan sanaladi. Munisakdan foydalanish uslubi bir xil bo‘lsa-da, lekin har xil nomlangan. Xususan, Buxoroda “katacha”, Xorazmda “misak”, Toshkentda “mirsak”, Farg‘onada “munsak” deb atalgan. Vohada munsakning tikilish uslubi kurtaga o‘xshab, faqat avra-astarli hamda yengi tirsakkacha keng bo‘lib, uning tagidan ko‘ylak yengiga tikilgan kashtali bezaklar ko‘rinib turgan¹⁴.

Erkaklar va ayollarning kaftan, kaltach yoki nimcha qadimgi kundalik va marosim kiyimi hisoblangan¹⁵. Kaltacha marosim kiyimi sifatida ham ishlatilgan. Xususan, qizlar 12 yoshga to‘iganlarida bunday ustki kiyimlarni kiyishgan. Qimmatbaho matolardan tikilgan kaltacha kelin uchun nafis kiyim sifatida foydalanilgan va kulrang-ko‘k rangdagi beqasab matosidan tikilgan, motam kiyimi sifatida kiyilgan. Shu bilan bir qatorlda «quroq»to‘qish ayollarning asosiy kasblaridan biri xisoblangan. Voxada «quroq»ning “Olma quroq, turnaqator quroq” kabilari tikilgan. “Atirgul kashta, malla, qora barqutli, chi-barqut” kabi kashtani turlarini xam ayollar o‘z qo‘llari bilan to‘qishgan. Kashtani 2 ta turlari bo‘lgan 1-chorkatak-teshik-teshik, 2-yo‘lak-yo‘lak, turnaqator. So‘zana- to‘rtburchak shaklda tikilib, ichiga xar xil qushlar, gullar va naqshlar solingan va Maqlayqosh-uzun ingichka qilib gullari bir xil qilib to‘qishgan¹⁶.

¹⁴ Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма: Самарканд 2-половина XIX- начало XX вв.). - М.: Наука, 1982. - С.34-35.

¹⁵ Люшкевич Ф.Д. Одежда таджикского населения Бухарского оазиса в первой половине XX в. // Сборник Музея антропологии и этнографии. – Ленинград, 1978. - Т. 135. Материальная культура и хозяйство народов Кавказа, Средней Азии и Казахстана. - С. 123-144

¹⁶ Дала ёзувлари. Кўшробод тумани. Кўштамғали кишлоги. 2023 йил



Xulosa. Kiyimlar vaqt o‘tishi bilan transformatsiyaga uchraydi. Bugun milliy kiyimlardan guppi, kebanak, chakmon, mursak, kasava, kiygich, jelak kabilar unutildi yoki unutilish arafasida turibdi. Xo‘sh, aholi kiyim-kechaklaridagi o‘zgarishlarning ro‘y berishining sababi nimada edi? Buning asosiy sababi, yangilanayotgan va o‘rganilayotgan davr hamda hududda kechgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jarayonlardir. Zarafshon vohasi turkman urug‘larida ham tilga olingan omillar o‘tgan davr ichida aholi kiyim-kechaklarining ayrimlarini unutilishiga, urfdan qolishiga yoki yangi noodatiy kiyim-kechaklarning tarqalishiga, an’anaviy kiyimlar o‘rniga noan’anaviy, zamonaviy kiyim-kechaklarning urf bo‘lishiga sababchi bo‘ldi.

Etnoslararo xo‘jalik madaniy aloqalarning rivojlanishi voha axolisining milliy kiyimlarida ham o‘z aksini topgan. Tadqiqotchi O.A.Suxareva “...qachonlardir O‘rtta Osiyo xalqlari turli qavmlari kiyimlarida sezilarli farq bo‘lgan bo‘lsa-da, ammo asrlar davomida ulardagi farqlar sayqallashib, umumiy ko‘rinishga ega bo‘lib ulgurgan edi”¹⁷ deb yozadi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, O‘rtta Osiyo xalqlariga xos bo‘lgan boshqa etnoslarning kiyimlari bilan unifikatsiyalashuv voha urug‘larining kiyim-kechaklarida ham o‘z aksini topgan. XX asrning o‘rtalaridan boshlab barcha xalq va elatlar hayotidagi kabi vohada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ham katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ishlab chiqarish mahsuldarligining o‘sishi, sanoatlashgan zavod va fabrikalarning qurilishi, barqaror turmush tarzining tarkib topishi xalq xo‘jaligining barcha sohalarida jadal rivojlanishga olib keldi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, bir necha an’anaviy kiyim nusxalari xalq iste’molidan asta-sekin chiqa boshladi, uning o‘rnini o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy talablariga mos keluvchi yangi kiyim nusxalari egalladi.

¹⁷ Сухарева О.А. Сухарева О.А. Опыт анализа покровов традиционной «туникообразной» среднеазиатской одежды в плане их истории и эволюции // Костюм народов Средней Азии. – М.: Наука, 1979. - С. 77-102.